

# **ETNOSPORT TURLARINI OMMALASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNI O'TKAZISH, YOSH SPORTCHILARGA SYUJETLI OBRAZLARNING AHAMIYATI.**

**Toshkent arxitektura-qurulish universiteti  
jismoniy tarbiya va sport fani o'qituvchisi S.S.Abduxoliqov**

**Annotatsiya:** O'quv-mashg'ulotlari jarayonida etnosport harakatli o'yinlarining qo'llanilishi mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini (etnosport) targ'ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o'smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi PQ-259-son qaroriga muvofiq va adabiyotlar taxliliga tayangan holda tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilab olishga imkon yaratilgan. Mashg'ulotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv-mashg'ulotlar jarayonida harakatli o'yinlar usullarining kam qo'llanilayotganligi bolalarda sport turiga bo'lgan qiziqish (motivatsiyaning) so'nayotganligidan darak berishi. Shu bilan birgalikda, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi yosh sportchilarning sportga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni saralab samaradorligini pedagogik tajribada asoslab, murabbiylar amaliyotiga tavsiya va takliflar berish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turganligi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy sport, etnosprt, yosh sportchilar, harakatli o'yinlar, syujetli obraz, jismoniy sifatlar, intellektual, salomatlik.

## **THE IMPORTANCE OF HOLDING ACTION GAMES AND PLOT-BASED IMAGES FOR YOUNG ATHLETES IN THE POPULARIZATION AND DEVELOPMENT OF ETHNOSPORTS.**

**Tashkent University of Architecture and Civil Engineering physical education and sports teacher S.S. Abdukholikov**

**Abstract:** The use of ethno-sports action games in the course of training is the promotion and popularization of national sports and folk games (ethno-sports) in our country, children and teenagers in order to attract them widely, to strengthen international relations, as well as in accordance with the decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-259 of May 25, 2022 and based on the analysis of literature it was possible to determine the goals and objectives of the research. The results of the trainings show that the lack of use of mobile game methods in the training process reduces children's interest in sports (motivation). to

indicate that it is fading. At the same time, the effectiveness of action games in the development of the motivation of young athletes engaged in sports at the stage of initial training was tested in the pedagogical experience. It is noted that giving recommendations and suggestions to the practice of coaches is one of the most urgent tasks.

**Keywords:** National sports, ethnic sports, young athletes, action games, plot image, physical qualities, intellectual, health.

**KIRISH:** Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini (etnosport) targ'ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o'smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-259-sonli qarori ushbu ilmiy izlanishga asos sifatida muhimligini o'zida aks etgan. Jumladan yosh sportchilarni sportga va mustaqil hayotga tayyorlashda mashg'ulot tizimini takomillashtirish bilan birga yoshga xos xususiyatlarini ham hisobga olish kerakligi mavzuni dolzarbligini tasdiqlaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Kichik yoshdagi bolalarning organizmi rivojlanish jarayonida organlar tizimi va butun organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'ziga xos yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganib bunda bola organizmi katta odam organizmidan tubdan farq qilishi, bola organizmi faqat katta odam qolipi bo'lmay, balki hajmi, fiziologik xususiyatlari va tashqi muhitga moslashishi bilan farq qilinishi olimlar tomonidan yetarlicha o'rganilgan. Yosh sportchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida to'laqonli jismoniy rivojlanishi va ularning jismoniy sifatlarini tarbiyalash, sport turining dastlabki texnik harakatlari elementlarini o'zlashtirish poydevori 8-12 yoshlar oralig'iga to'g'ri keladi. Olimlarning fikriga ko'ra, shu bosqichda bolalarda zarur harakat ko'nikmalari ayniqsa yaxshi o'zlashtirilib, mustahkam rivojlanishi ilmiy tadqiqotlarda asoslanib berilgan.

**NATIJALAR:** Dastlabki tayyorgarlik bosqichi o'quv-mashg'ulotlari

jarayonida etnosport harakatli o'yinlarining qo'llanilishi mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini (etnosport) targ'ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o'smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi PQ-259-son qaroriga muvofiq va adabiyotlar taxliliga tayangan holda tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilab olishga imkon yaratdi. Bu vazifalar qatoriga tezkorlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali yordam beruvchi etnosport harakatli o'yinlarni saralab olish, jismoniy va funktsional tayyorgarligining oshishiga, hamda to'g'ri va aniq texnik usullarning samarali o'sishida ularning qo'llanish shiddati, hajmi va me'yorlarini aniqlash shuningdek metodikasini ilmiy tadqiqot laboratoriyasida ishlab chiqish natijasida uning samaradorligini amaliyotga joriy etish bolalarning mustaqil hayotga sport misolida tayyorlashda syujetli o'brazlarning ahamiyati yuqoriligi ta'sir darajasining o'rnini belgilaydi.

**MUHOKAMA:** O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish ta'lim berish xususiyatlariga ega. O'yinning mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar bolaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy axloqiy, aqliy, jismoniy, va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. O'yin orqali bola shaxs bo'lib shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi.

O'yin bolaning jismoniy rivojlanishi, Yosh sportchilarning ta'lim-tarbiya ishida bolalarni aqliy, axloqiy mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Sport maktablarida o'tkaziladigan har qanday ta'limiy faoliyatni didaktik o'yinlar orqali tashkil etish, murabbiy boshchiligida qo'llanilayotgan o'yin usullari umumiy mashg'ulotdan maxsus mashg'ulotga undan musobaqaga tayyorlov guruhlariga o'tish asosida o'zgarib, murakkablashib boradi. Bu

jarayonda didaktik o'yinlarni, ta'lim-tarbiya usullaridan foydalangan holda qo'llash pedagogning kreativ kompetentligi va mahorati darajasiga bog'liq holda tarkib topib boradi.

8-12 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish faoliyatlari asosida tafakkurini rivojlantirish birnecha bosqichda amalga oshiriladi. Masalan: narsalar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli, murabbiylar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan "Hayvonot bog'ida", turli ko'kat o'simliklar bilan "Issiqxonada", sabzavotlar bilan "Dalada", mevalar bilan "Bog'da" nomli suvjetli suratlar orqali tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj va boshqalar)dan foydaniladi. Mazkur jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali

imkoniyatlarini ochib beradi. Mashg'ulotlar jarayonida tafakkurni rivollantirish usuliyoti ilmiy pedagogik didaktik shart-sharoitlar vositalar yig'indisidan iborat. Pedagogik tizim subyektlari hisoblangan tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ta'lim maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlar hamda tashkiliy shakllari yaxlit bir model asosida tashkil etilishini ifodalaydi. Mazkur modul asosiy didaktik elementlar tizimi: o'qitish maqsadi, yosh sportchilar jamoasi, murabbiy (murabbiyining mashg'ulot jarayoniga kreativ yondashuvi, faoliyatning qurilishi), didaktik qonuniyatlari, didaktik tamoyilla didaktik shart sharoitlar, o'zlashtirish natijalari, o'yinli ta'lim jarayoning o'quv metodik tuzilishidan iborat. Murabbiyning ijodkorligi didaktik o'yinlarni tashkil qilish jarayonida muhimdir. Chunki ularning ijodkorligi pedagogik voqelikni tez o'zlashtirishlari, unga nisbatan kreativ yondashishlarini ta'minlaydi. Didaktik o'yinlar asosida faoliyatlarning o'tkazilishi bolalarning o'zlari orasida, tarbiyachilar va atrof-muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakati yotadigan interfaol o'qitish metodlari istiqbolini aks ettiradi. Didaktik o'yinlar bilan bir qatorda harakatli o'yinlarham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda

muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Qadimdan o'yin odam hayotining zarur qismi bo'lib kelgan. Chunki u yoqimli jismoniy yuklamani yetarli darajada beradi, munosabatda bo'lish talablarini qoniqtiradi, tarbiyalaydi hamda tashqaridan ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, shu jumladan ham ko'ngilochar dam olish holatini va kayfiyatini yaxshilaydi. Psixologiyadan bizga ma'lumki, bolalar faoliyatining asosini o'yin tashkil etadi. Ular o'z hayot tajribalarini kun davomida ko'rgan kechiganlarini o'yin tarzda namoish etadilar. O'yilar orqali ta'lim oladilar, rivojlanadilar. Bizga ma'lumki,

o'yin bolalarda shodlik, quvonch, tabbasumni ta'minlaydi, bolaning ijobiy xislatlarini shakllanishiga, ochilishiga ijobiy ta'sir etadi, bolalar jismoniy kuchini va qobiliyatlarini rivojlantiradi. Eng avvalo o'yin holatini har doim o'zgarib turishi va harakat jarayonida bola o'zini kuchliligi bilan to'satdan kelib chiqadigan holatdan mustaqil chiqib ketishi, o'z kuchini o'z tezkorligini, kuch va chidamliligini ko'rsatishi, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lishni maqsad qilib qo'yishi bilan bolalarni o'ziga rom qiladi. Tadqiqotlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki ijtimoiy tasavvur qilingan o'yin rivojlantirishning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Syujetli –rolli o'yin davomida bolalar :

-turli xil narsalarni o'zgartirib ramziy tafakkurdan foydalanishadi (qog'ozlar

pulga aylanadi, quti uyga aylanadi);

-turli kasb egalarining harakatlari va fikrlarini takrorlashni talab qiladigan rollarni bajarishadi va qo'llab quvvatlashadi (sartarosh, shifokor, quruvchi, oshpaz, sotuvchi);

-rollar o'rtasidagi munosabatni va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishini anglaydilar;

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar o'zlari bilgan boshdan his qilgan kechinmalarga tayanadi hamda ushbu tajriba asosida qandaydir yangilik yaratishadi. Syujetli–rolli o'yin–bu juda kichik yoshdagi bolalar murakkab xulq-

atvor hamda fuqarolik va ma'naviy kopetensiyalarni egallashga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi ko'p qirrali jarayondir.

Sport turi bilan shug'ullanish davomiyligi va bu yo'nalishda yuqori ko'rsatgichlarga erishish shaxsning faolligi bilan belgilanib, uning asosida esa aynan motivatsiya yotadi. O'tkazilgan mashg'ulotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv-mashg'ulotlar jarayonida harakatli o'yinlar usullarining kam qo'llanilayotganligi bolalarda sport turiga bo'lgan qiziqish (motivatsiyaning) so'nayotganligidan darak beradi. Shu bilan birgalikda, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi yosh sportchilarning sportga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni saralab samaradorligini pedagogik tajribada asoslab, murabbiylar amaliyotiga tavsiya va takliflar berish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi yosh dzyudochilarning sport motivatsiyasini oshirishda shug'ullanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda zamon talablariga to'liq javob beradigan vosita va usullarni aniqlash hamda samaradorligi pedagogik tajriba yo'li orqali asoslash zarurati jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishning yangi darajasini taqazo etadi.

**XULOSA:**Yosh sportchilar organizmini har tomonlama rivojlantirish, sog'lig'ni mustahkamlash, tayyorgarlikning barcha boshqa turlari qatorida dzyudo sport turini boshlang'ich bosqichida puxta egallab, olganligi uchun mustahkam funktsional baza yaratishga yo'naltirilgan o'yinlar tanlab olinishi muhim vazifadir. Bu vazifalar qatoriga yosh dzyudochilarning kordinatsion qobiliyatini rivojlantirishda samarali yordam beruvchi etnosport harakatli o'yinlarni saralab olish, ularning qo'llanish jarayonida mashg'ulotlarning shiddati, hajmi va me'yorlarini aniqlash hamda amaliyotga joriy etish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini asoslash dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Milliy harakatli o'yinlarni metodikasi. O'quv qo'llanma. "Lesson Press" nashriyoti o'quv qo'llanma nashr etildi. Toshkent-2022yil. N.A. Chorshammiyev

2. “O‘zbek halq xarakati o‘yinlari” nomli o‘quv qo‘llanma . “Lesson Press” nashriyoti o‘quv qo‘llanma nashr etildi. Toshkent-2022yil.148 bet. T.S.Usmonxodjayev, N.A.Chorshamiyev, S.S.Tajibayev, S.S.Abduxoliqov

**REFERENCES:**

1. Methodology of national movement games. Textbook. The textbook was published by the publishing house "Lesson Press". Tashkent-2022. N.A. Chorshammiyev

2. The textbook "Uzbek people's movement games". The textbook was published by the publishing house "Lesson Press". Tashkent-2022. 148 pages. T.S. Usmonkhodjayev, N.A. Chorshamiyev, S.S. Tajibayev, S.S. Abdukholikov